

MAYDANAK BALAND TOG` TURIZMI

Berdiqulova Muhayyo Toshtemirovna

QARDU geografiya kafedrasida dekan o`rinbosari

Ermo`minov Bo`ri Norqo`chqor o`g`li

Nishon tumani 21-maktab o`qituvchisi

Ermo`minov Ro`zali Norqo`chqor o`g`li

Qarshi davlat Universiteti geografiya yo`nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatining tog`li so`lim go`shalaridan biri Qamashi tumanida joylashgan Maydanak baland tog` observatoriyasi va uning atrofida tashkil etiladigan turizm zonasi haqida so`z yuritiladi.*

Kalit so`zlar: *Turizm, Maydanak, Hisor, observatoriya, rekreatsion turizm, turistik oqim, gastronomik turizm, tur, turmahsulot, xalqaro turizm, tog`li hududlar, iqlimiy omillar*

Abstract: *This article talks about the Mайдanак high mountain observatory and the tourism zone around it in Qamashi district, one of the mountainous regions of Kashkadarya region.*


Keyword: *Tourism, Maydanak, Hisor, observatory, recreation tourism, touristic flow, gastronomik tourism, tour, tourmahsulot, international tourism, mountainous territory, climate factories*

Maydanak tog`i Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismidagi Hisor tog` tizmasining janubiy - g`arbiy tizmasi Maydanak tog`ining g`arbiy qismida joylashgan. Ma`muriy hudud jihatdan Qamashi hududida joylashgan bo`lib Sobiq ittifoq davrida 1970 - yilda osmon jismlarini ilmiy jihatdan kuzatish va tadqiq etish uchun qurilgan. Koinotni kuzatadigan Yer yuzasidagi eng qulay hududda joylashgan 5 ilmiy stansiyaning biri hisoblanadigan Kitob kenglik stansiyasi bilan hamkorlikda ilmiy ishlar olib boriladi. Bu stansiya 38° shimoliy kenglikda joylashgan. Yer o`z o`qi atrofida 24 - soat mobaynida bir marotaba aylanib chiqishini hisobga olinib, 5 - ta stansiya 4.78 soat mobaynidagi vaqt almashinadigan osmon jismlarini kechki kuzatuv ishlari ham olib boriladigan astronomik rasadxona hisoblanadi. 1990-yillardan buyon rasadxona O`zbekiston Fanlar akademiyasi qoshidagi Mirzo Ulug`bek nomidagi Astronomiya instituti tasarrufida. Dengiz sathidan balandligi 2650 m (ayrim adabiyotlarda 2700m berilgan), umumiy maydoni 40 ga teng. Rasadxonaga o`rnatilgan teleskoplar ko`zgarining diametri 1,5 m va 1,0 m. Bulardan tashqari, kuzgusining diametri 60 sm dan bo`lgan 4 ta, 50 sm dan bo`lgan 3 ta teleskoplar ham o`rnatilgan. Rasadxonada Galaktikamiz Shimoliy qutbi sohalarida va Quyosh sistemasi atrofidagi tumanliklarda joylashgan o`zgaruvchan yulduzlar fotometriyasi ma`lumotlari to`planadi, yulduzlar yorqinligining kuchsiz o`zgarishlari fotometrik effektlari topildi. Ushbu fotometriya natijasidan foydalanib dunyoda muhim bo`lgan rangli fotometriya banki barpo etildi. Rasadxonada koinotning eng uzoq, chekkalarida joylashgan noyob ob`yektlar – gravitatsion linzalar, kvazarlar va faol yadroli galaktikalarni tadqiq etish bo`yicha izlanishlari olib boriladi.

1 - 2 - rasmlar

Maydanak baland tog'li rasadxonasi Shimoliy yarim shardagi eng yaxshi astronomik ob'ektlardan biri va eng yaxshisi. Observatoriya 4 ta kometani topdi Maydanak rasadxonasi olimlari tomonidan topilgan 80 dan ortiq asteroidlar 2007 yilda rasadxona yangi kichik sayyora "Samakand"ni kashf etdi. Rasadxona Quyosh tuzilishini geliseysmologik tadqiq qiladi MDHda birinchi astrovideo Maydanakda suratga olingan Rasadxonaning joylashgan joyi dengiz sathidan - 2650 m balandlikda Rasadxona joylashgan hudud juda sokin, shu qadar sokinki, ko'pchilikda eshitish gallyutsinatsiyalari paydo bo'la boshlaydi.

3-rasm



Maydanak baland tog` observatoriyasi atrofida mahalliy va xorijiy turistlar oqimini yo'naltirish va jalb etish maqsadida "maydanak baland tog`" turistik zonasi, tog`li - rekreatsion zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalarini tashkil etish rejalashtirilgan. Buning uchun turistik infratuzilmani yaratish hamda rivojlantirish uchun puxta turistik strategiya ishlab chiqilib rejali sarmoya kiritish maqsadga muvofiq bo`ladi. Mintaqaning iqlimiy resurslarini ilmiy baholab va ulardan oqilona foydalanib tur mahsulotlarni ko'paytirish va imkoniyatlaridan umuman foydalanilganicha yo`q. Bizga ma'lumki, iqlim turizmni davriyligiga ta'sir ko'rsatib, tabiatda ob-havoning o'zgarishi, tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanish hodisalari, tabiat injiqliklari turistlar oqimining keskin kamayishiga sababchi bo'ladi. Mintaqamizda to`rt fasl hukmronlik qiladi bu esa mavsumiy turizm turlarini ko'paytirishni taqozo etadi. Ayrim turlar bor sharoit va xavfsilik yaratilganda mavsum tanlamaydi.

Endi Maydanak tog`i va uning atrofida 7900 ga yaqin archazorlar, yo`l bo`ylab boshqa diqqatga sazovor joylardan kelib chiqib qaysi turizm turlarini yaratish mumkinligini 1 - jadval asosida ko`rib chiqamiz:

1 - jadval

N:	Turizm turlari	
1.	Sog`lomlashtiruvchi va dam olish turizmi	+
2.	Rekreasion turizm	+
3.	Ilmiy turizm	+
4.	Sport turizmi	+
5.	Shop-turlar	+
6.	Diniy turizm (ziyosat bilan bog`liq safarlar)	+
7.	Qo`msash, sog`inish turizmi	+
8.	Ekoturizm	+
9.	Ovchilik turizmi	+
10.	Gastronomiya turizmi	+
11.	Speleoturizm	+
12.	Ekstremal turizm	+
13.	Etnografik turizm	+
14.	Davolanish turizmi	+
15.	Yoshlar turizmi	+
16.	O`rta yoshdagilar turizmi	+
17.	Nafaqa yoshidagilar turizmi	+
18.	Oilaviy turizm	+

Maydanak observatoriyasining sharqiy qismida 4 - km uzoqlikdagi masofada joylashgan hozirda O`zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga tegishli "Maydanak" o`lchash majmuasi (izmeritelniy kompleks "Maydanak") bo`lib, ko`pgina gidrometeorologik asboblardan va inshootlarda o`lchash ishlari olib borilgan. Sobiq ittifoq davridan beri qattiq qo`riqlangan bo`lib faqatgina ilmiy tadqiqotchilar va harbiylardan boshqalar kiritilmagan, nima saqlanganligi va nima uchun qattiq qo`riqlanganligi sir tutilgan. Mustaqillikdan keyin ham bu yerda harbiy mashg`ulotlar olib borilgan. Hozirgi vaqtda ta`mirlalab holatga kelgan katta gastinsa ham mavjud.



4 - rasm

Dunyoning rivojlangan davlatlarining qaraydigan bo`lsak iqtisodiyoti tarkibida turizmdan keladigan daromad va xizmat ko`rsatish sohaslaridan ko`p daromad oladi. Mamlakatimizda ham turizmni rivojlantirishga etibor qaratilmoqda. Bu borada butun jahon turizm tashkilotining turizm sohasini barqaror rivojlantirishga qaratilgan loyihalarini va tashabbuslarini qo`llab quvvallagan holda rivojlangan mamlakatlar tajribasini foydalaniladi. Turistlar tabiiy landshaft ga intilishadi va tabiat qo`ynida dam olishni xush ko`rishadi.

Mamlakatimizda archazorlarning aksariyat qismi Qashqadaryo viloyatining tog`li qismiga to`g`ri keladi, demak bu borada imkoniyat katta.

Tog`li, xush manzarali, murakkab rel`ef tuzilishiga ega bo`lgan o`lkalar turistlar oqimini o`ziga ko`proq jalb qilishadi. Murakkab tog` rel`efi landshafti estetik jihatdan tekislik, yassi hududlarga nisbatan turistlarni ko`proq jalb etish imkoniyatiga ega. Tog`li o`lkalar o`zining toza va sof havosi bilan ajralib, tog` sportini rivojlantirish imkonini tug`diradi. Maydanak tog`ida qishki va ekstrimal sport turlarini yo`lga qo`yilsa turistik oqim ko`payishi, talab va ehtiyojlardan kelib chiqib ijtimoiy xizmatlar yo`lga qo`yiladi.

Iqtisodiy geografik omillarga turizmning moddiy texnika bazasi, ya`ni mehmonxonalar fondi, umumiy ovqatlanish korxonalari (restoran tarmoqlari), sport inshootlari, tomosha va sayr qilish, dam olish, bir qator servis xizmati ko`rsatish obektlari ichki va tashqi kommunikasiya tarmoqlari avtomobil, temiryo`l, havo yo`llari, dengiz va daryo transporti, aloqa vositalari, internet tarmog`i kiradi

“ Maydanak baland tog` ” turistik markazi turli xil xizmat ko`rsatish sohalarini o`z ichiga olgan kompleks yangi loyihasi ishlab chiqilganligi ma`lum qilingan. Mazkur maskan mahalliy va xorijiy sayyohlarni ilm - fan va koinotga qiziquvchilarning, tabiat qo`ynida maroqli dam olishlarini, vaqtini mazmunli o`tkazish imkoniyatini beradi.

Murojaat uchun: +998991572710 ruzaliermuminov@gmail.com

ADABIYOTLAR RO`YXATI / REFERENCES / ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Usmanov M.R. Turizm geografiyasi: o`quv qo`llanma. – Samarqand, «SamDU», 2020. 41 - 42 b. Samarqand— «SamDU» – 2020
2. Fayzieva Sh.R. O`zbekistonda turizm rivojlanishining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. i.f.n. diss. - O`zMU, 2006.
3. Алиева М.Т., Умаржонов А. Туристтик мамлакатлар иқтисодиёти.-Т.: Молия 2005
4. М.Т. Aliyeva, X o`jayev O`X., Norchayev. A.N. Turizm rivojlanishini prognozlash. O`quv qo`llanma. – T.: TD IU , 2006.
5. Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asosiari. Monografiya. - Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016
6. Alimova M.T. “Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida)”. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. 2017 y
7. Ibadullayev N.E. Turistik resurslardan foydalanish samaradoriigini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida). I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. - S.: SamlSI, 2010
8. Rahimov Z.O. “Turistik resurslardan foydalanish samaradoriigini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. - S.: SamlSI, 2012

9, Шарафиддинова Д., Экологик туризмни ривожлантиришда халқаро технологияларнинг моҳияти ва тавсифи // Республика илмий анжумани материаллари.- Самарқанд, 2014

10. Yvette Reisinger PhD. International tourism: Cultures and Behavior. 2009. Elsevier Ltd, UK and USA.

11. Сапожникова Е.Н. Страноведение: теория и методика туристского изучения стран. М. Академия, 2005.

12. John R. Walker. Exploring the Hospitality Industry. Prentice Hall. USA, Websayt

1. www.press-service.uz - Ўзбекистон Республикаси Президентининг Матбуот хизмати расмий сайти

2. www.lex.uz - Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси

3. www.uzbektourism.uz - Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси расмий сайти

4. www.unwto.org - UNWTO rasmiy sayti

5. www.data.worldbank.org - The World Bank Group сайти

6. www.yatra.com - World Travel Guide

7. www.world-tourism.org – Всемирная туристская организация

8. www.unlaibrary.uz

Мақола муаллифи Ермо`минов Ро`зали Қарши давлат университети география yo`nalishi 4 bosqich talabasi